



BAXSHIYONA USLUB VA LEKSIK QATLAM.

Muratkulov Amonulla Tursunkulovich

Guliston davlat universiteti

“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Ermatov Ixtiyor Rizakulovich

Guliston davlat universiteti

“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida dotsent, filologiya fanlari
doktori (DSc)

Eshboyeva Fazilat

Guliston davlat universiteti, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida
o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15387310>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 10th May 2025

KEYWORDS

badiiy nutq, rasmiy nutq, arxaizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, tahlil, tahqiq, baxshiyona uslub, mufassir, matn, tavsif, leksik qatlam, lug‘aviy birlik, omonim sozlar, xalq tili

ABSTRACT

Ushbu maqolada To‘ra Sulaymon, Muhammad Yusuf va Rustam Musurmonlar asarlarida badiiy nutq tasvirlash usullarining o‘ziga xos qirralari ko‘rsatib o‘tilgan. To‘ra Sulaymon, Muhammad Yusuf, shuningdek, Rustam Musurmon she‘riyatidagi xalqona ruh, baxshiyona uslub yetakchi va mushtarak xususiyatga ega ekanligi ilmiy tahlil etilgan.

Bizga ma‘lumki, adabiy nutqning ikki turi mavjud va ular har-xil maqsadlarga xizmat qiladi. Lekin har ikkisi ham fikr anglatadi. Rasmiy nutqdan farqli o‘laroq, badiiy nutq tasvirlash yo‘li bilan fikr anglatiladi. Obrazli qilib aytganda, rasmiy nutq obrazlar zanjiri vositasida ma‘no anglatadi. Badiiy nutqda esa estetik maqsad ham ko‘zlanadi. Shuningdek, badiiy nutqda lug‘aviy qatlam ko‘proq ko‘chma ma‘noda qatnashadi.

Voqelikning in‘ikosi bo‘lgan badiiy asarda lug‘aviy birliklar, har-xil nutqqa xos hodisalarning qatnashuvi, badiiy nutqqa xos hodisalarning qatnashuvi badiiy nutqqa xos yaxlitlikni buzmaydi, badiiy nutq to‘qimasida o‘ziga munosib o‘rin va vazifa oladi.

O‘zbek adabiyotida hokim vaziyatni she‘riyat egallagani sababli lug‘aviy birliklar doirasida poetik so‘zlar qatlami guruhlanib qolgan. Bular orasida arxaizmlar, neologizmlar qatorida dialektizmlar ham mavjud. Faqat mavjud bo‘lib qolmasdan, ushbu holat uslub darajasiga ko‘tarilgan.

Bir ijodiy metodga mansub yozuvchilarning har biri ijodining o‘ziga xos xususiyatlari “yozuvchining uslubi” deb ataladi.

Lekin uslub deb faqat yozuvchi aniq badiiy asarning tilini tushunish to‘g‘ri emas.

Til – badiiy adabiyotda tasvir vositasidir. Shu sababli bu vositaning qanday xususiyatlariga ega bo‘lishi badiiy asarning butun mazmuni bilan chambarchas bog‘liq. Til-uslubni tashkil etuvchi muhim fikrlardan biridir, xolos.

“Uslub badiiy ijodning yana bir asosiy xususiyati bilan chambarchas bog‘liq hodisadir: badiiy adabiyotning har bir asari konkret ijrochi (yozuvchi) tomonidan yaratiladi”.

Ana shu ijrochilik XX asrning 80-90-yillariga kelib haqiqiy baxshilik darajasiga ko‘tarila oldi va ushbu davr lirikasida “baxshiyona uslub” degan uslub paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Mana shu davr “baxshiyona uslub” ijrochilari sifatida sirdaryolik To‘ra Sulaymon, vodiylilik Muhammad Yusuf va Qarshaqardaryo vohasidan bo‘lgan Rustam Musurmonlarni ko‘rsatib o‘tish joiz.

Poeziya-murakkab va g‘oyatda boy san‘at U inson qalbining g‘oyatda nozik his-tuyg‘ularini, fikr va ruh harakatini, ehtiroslar kurashi va rivojini emotsional tarzda ifodalaydi.

Shoir-dard. Dard-hayot. Hayot-xalq. Xalqimizning orzu-umidlarini qalbigi joylagan shoirlar asarlari bilan adabiyotimiz yangilanish jarayoniga kirdi. Bu yangilanish shoirlar she‘riyatidagi xalq og‘zaki ijodiga hamohanglik va hammazmunlikning ifodasi bilan anglashiladi.

To‘ra Sulaymon, Muhammad Yusuf, shuningdek, Rustam Musurmon she‘riyatida ana shunday xalqona ruh, baxshiyona uslub yetakchi va mushtarak xususiyat hisoblanadi. Garchi, To‘ra Sulaymon adabiyotga 50-yillarda kirib kelgan, Muhammad Yusuf va Rustam Musurmonlar 80-90-yillarda kirib kelgan bo‘lsalar-da, ularning she‘riyatida baxshiyona tarannum, so‘zga chechan milliy mentalitetdagi yaqinlik, ularni mushtarak holatda tadqiq etishga sabab bo‘lmoqda.

To‘ra Sulaymonning o‘nlab doston va she‘riy to‘plamlaridagi lirik qahramon goh oddiy bo‘z yigit, goh kengliklarni qadrlagan jiddiy kishi, gohida esa ko‘pni ko‘rgan, hayotning pastu-balandini boshidan o‘tkazgan nuroniy qiyofasida nomoyon bo‘ladi. Shoir lirikasi tili sodda, ravon, baxshiyona va qadimgi xalq eposlariga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Muhammad Yusuf yaratgan she‘rlar ham nafaqat mavzu, janr va uslub jihatdan, balki jo‘shqinligi va shiddatkorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, uning she‘ru-dostonlarida ona Vatan ishq, xalq tashvishlari, muammolari folklor an‘analari asosida o‘zining chuqur ifodasini topdi.

Rustam Musurmon ham she‘riyatda o‘z uslubiga ega. Uning she‘riyatida do‘lvorlik, tantilik, soddalik va jo‘shqinlik ohanglari bisyor. Shoir she‘riyatida lirik qahramon sifatida qishloqning oddiy bo‘z yigiti gavdalanadi va sho‘x-shodon hazil-mutoyibalari bilan ma‘shuqa ko‘ngliga yo‘l topmoqchi bo‘ladi. Shuningdek, xalqning tashvishlari ham chetda qolmaydi.

Xususan, To‘ra Sulaymon ijodidagi “Tebratar” she‘riga nazar tashlansa, atigi o‘n ikki misralik, kichik hayotiy lavhani o‘z ichiga olgan ushbu she‘rda xalq tilining naqadar boy ekanligi ko‘zga tashlanadi:

Shamol shamolni tebratar

Shamol bulutni tebratar

Bulut yomg‘irni tebratar

Yomg‘ir tuproqni tebratar.

Tangri taolo yer yuzini yaratganda undagi barcha narsani bir-biri bilan uzviylikda yaratdi, deyiladi hadislarda. Bu o‘rindagi lirik qahramon ana shu uzviylikni o‘z hayoti asosida ko‘radi.

Tuproq maysani tebratar,

Maysa biyani tebratar ,
Biya qimizni tebratar,
Qimiz yigitni tebratar,
Yigit suluvni tebratar ,
Suluv beshikni tebratar ,
Beshik bolani tebratar .

She'arning so'nggi misrasi o'zbek xalq maqollarida ham mavjud. Bunda xalqona ohang falsafiylikka yo'g'rilgan va bir butunlikda insonga estetik zavq bera oladi. She'rda o'ziga xos evfoniya (tovushlar ohangdorligi)ni ta'minlovchi so'z "tebratar" o'zgacha ritm bag'ishlaydi.

Muhammad Yusuf she'riyatida xalqona ohang zamonaviy ruh bilan uyg'un holatda talqin etilgan. Lekin To'ra Sulaymonning ma'nolar izchillik bilan berilgan she'ri shaklini eslatuvchi Muhammad Yusufning «Terma» she'rini tahlil qilganda unda qo'llanilgan anafora shakli ham izchillik uchun xizmat qila bilganiga guvoh bo'lamiz.

Yomon ko'z tosh yorar der,
Yomon do'st bosh yorar der,
Yomon erkak to'y buzar ,
Yomon bo'lsa yo'ldoshing
Bir baxting ham to'zar der. (179-bet)

Bunda ma'no ketma-ketligi mazmun yaxlitligini keltirib chiqargan.

Yomon boqqa gul bo'lma,
Sahroda bo'l yulg'uncha
Yomon bilan yurguncha
Yolg'iz yasha o'lgancha!...

She'rdagi didaktik ohang va ritm orqali xalqona ruh bilan birgalikda qaysidir ma'noda hazinlik ham, xalq dardiga hamdardlik ham ko'zga tashlanadi.

Shoir Rustam Musurmon she'rlarining alohida ajralib turadigan asosiy xususiyati musiqiylik -xushovozlikda, tovushlar simvolikasida. Uning she'rlari sekin o'qishga emas, balki dunyoni atayin tovush orqali idrok etishga yo'naltirilgan, tovushlarni o'ziga xos talaffuz qilgan holda baland ovozda kuylashga mo'ljallangan. Ushbu she'rlar vositasida rang-barang ovozlarga boy tabiat va insoniyat dunyosini tovushlarning bus-butun simfoniyasini tinglaysiz. Bunda xalqonalilik va uning leksik qatlami yordamga keladi.

-O'llalla yor, o'llalla,
So'zingni ayt o'llalla,
Qaro deysan ko'zingni,
Ko'zingni ayt o'llalla

Ushbu parchadagi "o'llalla" so'zi turkiy xalqlarning qadimgi o'roni, jangovor da'vati bo'lgan ekan,. ma'nosiga ko'ra esa "Agar ishonmasang, qasam ichaman", degan ma'noda ishlatiladi.

Shoir manna shu shakldagi noyob topilmalarni o'z she'rlarida qo'llash orqali nozamonaviy qatlamning noaniqliklarini oydinlashtirgandek bo'ladi.

-Ana olu va olu,

Qara olu va olu,

Olularning ichida

Sar olu va olu.

Bu o'rinda shoir omonim so'zlardan foydalanib so'z o'yini qiladi, ya'ni olxo'ri, qirmizi rang va olmoq ma'nosida keladi.

Umuman har uchala shoir lirikasida baxshiyona uslub o'ziga xos o'rin tutadi va uslubning qaytarilmasligini ta'minlaydi. Ularning ijodiy izlanishlari asar tili va uslubi borasidagi yangicha va o'ziga xos hodisa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'G, R. Z. S. I., Tursunkulovich, M. A., & Qizi, E. F. B. (2024). TA'LIMDA RASMIY ISH QOG 'OZLARINING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 22-25.
2. Fazilat, E., Lutfinisa, D., & Sirojiddin, M. (2024). OZBEK SAHNA ASARLARI TILINING AYRIM JIHLARI SHARHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 16-21.
3. Muratkulov, A. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 174-176.
4. Ermatov, I., Eshboyeva, F., & Mamatqulov, A. (2025). TO'RA SULAYMONNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 101-105.
5. Akbarovich, A. A., Ixtiyor, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O 'ZARO BOG 'LIQLIGI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 4-7.
6. Berdialiyev, A., & Ermatov, I. (2021). Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). *T.: "TURONIQBOL" nashriyoti*, 204.
7. Berdialiev, A., & Ermatov, I. (2021). Modern Uzbek literary language.
8. Rizaqulovich, E. I., Murtozayevich, M. S., & Qizi, N. O. A. (2024). OTNING XUSUSIY LUG 'AVIY SHAKLLARI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 26-29.
9. Ikhtiyar, E. (2022). HYPERO-HYPONYMIC RELATIONS IN THE TERMINOLOGICAL SYSTEM OF MORPHEMES AND WORD FORMATION LEVELS OF UZBEKI. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 133-136.
10. Эрматов, И. Р. (2022). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ "МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН" АСАРИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ҲАҚИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 983-990.
11. Эрматов, И. Р. (2022). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ "МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН" АСАРИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ҲАҚИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 983-990.

12. Эрматов, И. Р., & Турдикулова, К. (2022). ГАП БУЛАКЛАРИ. МАКОМИНИНГ БЕЛГИЛАНИШМЕЗОНЛАРИ ХАКИДА. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 190-193.
13. Эрматов, И. (2022). ТЕРМИНОЛОГИЯ ТИЗИМИДА ГИПОНИМИЯ ВА ЭКВОНИМИЯ ҲОДИСАЛАРИНИНГ КЕСИШУВИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 173-178.
14. Ermatov, I. (2022). Hozirgi ozbek adabiy tili (Morfemika, so'z yasalishi, morfonologiya). *Scienceweb academic papers collection*.
15. Мураткулов, А. Т. (2023). ОРГАНИЗОВАТЬ УРОКИ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS* (Vol. 2, No. 7).
16. Мураткулов, А. Т., & Мураткулова, М. А. (2023). ОБРАЗ ЛУКМАН ХАКИМА В «КИСАС УЛЬ-АНБИЯ». In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS* (Vol. 2, No. 7).
17. Muratkulov, A. (2024). О 'ЗБЕК ТИЛИДА АРАБЧА КО 'ПЛИК ШАКЛЛАРИНИНГ ҚО 'ЛЛАНИЛИШИ. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 174-176.
18. Tursunkulovna, S. I., Lutfiniso, D., & Omonullo, M. (2020). Imitation of Thoughts and Feelings–Artistic Means of Psychology. *Solid State Technology*, 63(4), 453-457.
19. Khamrokulovna, T. Z. (2021). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).
20. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. *Проблемы педагогики*, (7), 77-78.

INNOVATIVE
ACADEMY